

OLIIY TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING
IJTIMOIY VA PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Baytileuova Gulnaz Quralbay qizi

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Orolbo'yi tibbiyot va
transport texnikumi o'qituvchisi*

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 24.10.2024

Revised: 25.10.2024

Accepted: 26.10.2024

KALIT SO'ZLAR:

raqamli
texnologiyalar, oliy
ta'lim, ijtimoiy
muammolar, psixologik
muammolar,
motivatsiya.

*Maqolada oliy ta'limda raqamli
texnologiyalardan foydalanish jarayonida yuzaga
keladigan ijtimoiy va psixologik muammolar
tahlil qilingan. Talabalar va o'qituvchilarning
onlayn ta'limga moslashuvi, motivatsiya
pasayishi, diqqatni jamlash muammolari va
texnik tengsizlik masalalari yoritilgan.*

Kirish. Raqamli texnologiyalar oliy ta'lim tizimida keng qo'llanila boshlashi bilan bir qatorda, ular yangi ijtimoiy va psixologik muammolarni ham yuzaga chiqarmoqda. An'anaviy auditoriya darslaridan farqli ravishda, onlayn ta'lim jarayoni o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi muloqotni ma'lum darajada cheklaydi. Bundan tashqari, raqamli vositalarga haddan tashqari tayanish natijasida psixologik charchash, diqqatni jamlay olmaslik, motivatsiya pasayishi kabi muammolar ham kuzatilmoqda. Ushbu maqolada oliy ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llashning ijtimoiy hamda psixologik jihatdan yuzaga keladigan cheklovlari tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Ijtimoiy muammolar eng dolzarb muammolardan bo'lib hisobalanadi. Bunda asosan muloqot yetishmasligi ham ahamiyat kasb etadi. Masofaviy ta'limda talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi jonli muloqot kamayadi, bu esa ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir qiladi[3].

Shuningdek, texnik tengsizlik ham katta muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ya'ni, barcha talabalarda yuqori tezlikdagi internet va zarur texnik vositalar mavjud emas. Bu ijtimoiy adolatsizlikka sabab bo'lishi mumkin. Talaba faolligining pasayishi ham onlayn darslarda talabalarni faol ishtirok etishga jalb qilish murakkabroq bo'ladi[6].

Keyingi asosiy muammo psixologik muammolar doirasida kelib chiqadi. Ya'ni, diqqatni jamlay olmaslik ekran orqali ta'lim olishda talabalar tez charchab qoladi, bu e'sa bilimni samarali o'zlashtirishga to'sqinlik qiladi.

Motivatsiyaning pasayish auditoriya darslarida mavjud bo'lgan musobaqa, do'stona muhit onlayn ta'limda yetishmasligiga olib keladi.

Psixologik charchash (digital fatigue) ham tasir ko'rsatadi. Uzoq vaqt kompyuter qarshisida bo'lish inson salomatligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi[5].

Binobarin o'qituvchilar uchun muammolar ham mavjud. Yangi texnologiyalardan foydalanishda barcha pedagoglar ham yetarli malakaga e'ga emas. O'quv materiallarini onlayn formatga moslashtirish qo'shimcha vaqt va mehnat talab etadi.

Pedagogning o'zining ham psixologik bosim ostida ishlashi kuzatiladi.

Tahlil va muhokama. Oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq ijtimoiy va psixologik muammolarni hal qilish uchun bir qator chora-tadbirlar zarur. Avvalo, raqamli inklyuzivlikni ta'minlash – barcha talabalar uchun texnik imkoniyatlarni tenglashtirish lozim. Shuningdek, psixologik yordam markazlari faoliyatini kuchaytirish, talabalarga motivatsion treninglar o'tkazish ham samarali bo'ladi. O'qituvchilarni raqamli kompetensiyalar bo'yicha muntazam tayyorlash, ularning ish yukini optimallashtirish ham muammolarni bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Raqamli texnologiyalar oliy ta'lim sifatini oshirishda katta imkoniyatlarga ega bo'lsa-da, ularni joriy etish jarayonida ijtimoiy va psixologik muammolarga jiddiy e'tibor berish zarur. Talabalar va o'qituvchilarning raqamli ta'limga moslashuvi, motivatsiyani oshirish, psixologik charchashning oldini olish va teng imkoniyatlarni yaratish ta'lim samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhamediyeva D. Raqamli texnologiyalar va intellektual tahlillash zamonaviy modellarini qurish usullari va algoritmlari, 2022.
2. Olimov Sh., Samiyeva Sh, Aslanova N, Ro'ziyev F. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodlari. -Buxoro, 2022.
3. «Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish» moduli bo'yicha o'quv–uslubiy majmua. -Nukus, 2022.

=====

4. Xoliqov A. (2023). Raqamli sxemotexnika, 2007.

5. <http://www.airi.uz>.

6. <https://www.researchgate.net>.